

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**SUYUNOVA YULDUZ AXMATOVNA**

**TALABALARDA MUHANDISLIK FAOLIYATIGA OID AMALIY  
BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**  
(Texnik mexanika fani misolida)

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Suyunova Yulduz Axmatovna**

Talabalarda muhandislik faoliyatiga oid amaliy bilimlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Texnik mexanika fani misolida) ..... 3

**Суюнова Юлдуз Ахматовна**

Совершенствование методики развития у студентов практических знаний по инженерной деятельности (на примере дисциплины техническая механика)..... 23

**Suyunova Yulduz Akhmatovna**

Improving the methodology for developing students' practical knowledge of engineering (on the example of the discipline of Technical Mechanics)..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 49

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI MUHANDISLIK–IQTISODIYOT INSTITUTI**

**SUYUNOVA YULDUZ AXMATOVNA**

**TALABALARDA MUHANDISLIK FAOLIYATIGA OID AMALIY  
BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**  
(Texnik mexanika fani misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6559 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.qmii.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qo‘ziev Nodir Murodullayevich**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Turdiyev Shoxrux Razzaqovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.

**Ximmataliyev Do‘stnazar Omonovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.T.111.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil « 23 » aprel soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik ko‘chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (101 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik ko‘chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « 8 » aprel kuni tarqatildi.

(2024-yil « 8 » aprel dagi № 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



**F.M.Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
asosidagi bir martalik Ilmiy Kengash raisi,  
t.f.d., professor

**D.Sh.Chuyanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash  
asosidagi bir martalik Ilmiy Kengash ilmiy  
kotiibi, t.f.d., professor

**Sh.U.Nurullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy  
Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahon taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish - zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali muhandislar tayyorlash jarayonlari samaradorligini ta'minlovchi ta'lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Hozirgi kunda jahonning eng ilg'or universitetlarida (Oxford University, Michigan University, Westminster University) tizimli, amaliy va uskunaviy dasturiy ta'minotlar imkoniyatlaridan foydalangan holda talabalarning amaliy bilimlarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bois oliy ta'lim mazmunini yangilash, o'qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, ta'lim bosqichlarining o'zaro uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash orqali oliy ta'lim muassasasi talabalarining muhandislik faoliyatda amaliy bilimlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Dunyoda ishlab chiqarish vositalarining texnika va texnologiyalar nuqtai nazaridan murakkablashuvi, muhandislarning kasbiy intellektual sifatlariga va ularning ijodiy tafakkur qila olish muhandislarning muhim kasbiy sifatleri dolzarb muammo hisoblanadi. Fransiyaning Strasburg shahridagi Yevropa Ittifoqi Parlament assambleyasi tavsiyasiga ko'ra, muhandislarda bunday tafakkurning shakllanganligi ularning bo'lg'usi kasblaridagi muvaffaqiyat garovidir. Bu esa shaxs rivojlanishi uchun ta'limni yo'naltirish, ta'lim oluvchilardagi individuallikni shakllantirish va ulardagi qobiliyatlarni ochishda shart sharoitlarni yaratish, shuningdek oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda xorijiy tajriba va maqsadli yo'naltirilganlik dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Shundan kelib chiqib, texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning amaliy bilimlarini rivojlantirishning nazariy aspektlarini aniqlashtirish, modellashtirish, metodikani takomillashtirish, baholash mexanizmini rivojlantirish zarurarti mavjud.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini isloh qilish va oliy ta'limning xalqaro andozalarga mosligini ta'minlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. "2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytingga kirishga maqsadli tayyorlash, 2026-yilgacha nodavlat oliy ta'lim muassasalari sonini kamida 50 taga yetkazish"<sup>1</sup> ustuvor vazifa hisoblanadi. Oliy ta'limda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish, shuningdek ta'lim tizimida zamonaviy fikrlaydigan, exnik mexanikadan amaliy bilimlari rivojlangan kadrlarga ehtiyojni oshirmoqda. Shu nuqtai-nazardan talabalarni Texnik mexanikani o'qitish orqali amaliy bilimlarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni,

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. <http://lex.uz/uz/docs/5841063>

2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-300-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 466-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion fikrlar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini kasbiy yo‘naltirish nuqtai nazaridan mukammallashtirish, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish jarayoni va tendensiyalari, bo‘lajak yosh mutaxassislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlash muammolari bo‘yicha mamlakatimiz olimlaridan U.I.Inoyatov, R.H.Jo‘rayev, E.A.Seytxalilov, Sh.E.Qurbonov, A.R.Xodjaboyev, Z.K.Ismoilova, Q.T.Olimov, N.A.Muslimov, S.Q.Qaxxorov, D.Dj.Sharipova, Sh.S.Sharipov, Sh.Sh.Olimov, J.A.Hamidov, M.B.O‘rozova, O.T.Turakulov, D.O.Ximmataliev, N.Sh.Shodiyev, F.M.Zokirova, N.I.Taylakov va boshqalarning ilmiy–tadqiqot ishlarida atroflicha o‘rganilgan.

Amaliy bilimlarni shakllantirish ustida I.M.Nizomov tadqiqot ishlarini olib borganlar. Texnika ixtisosliklari talabalarida umumtexnika fanlarini o‘qitish orqali tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga N.I.Mokritskayaning dissertatsion tadqiqot ishi bag‘ishlangan.

MDH mamlakatlarida talabalarni zamonaviy muhandislik ta’limi va innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash muammolari bo‘yicha N.I.Naumkin, V.M.Polonskiy, N.P.Puchkov, Y.P.Grosheva, A.I.Polovinkin, I.Mushtaev, B.L.Agranovich, I.D.Yemelyanov, A.Ye.Ayzenson, M.M.Gorunova, E.V.Maykova, R.V.Meyyerlar, L.D.Shabashova va boshqalar ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Xorijiy davlatlar olimlari J.Bishop, K.Elizabeth, A.I.Kravchenko, C.K.Pathak, R.S.Yadav, S.Hollyforde hamda S.Whiddetlarning ilmiy izlanishlarida texnik kompetentlikni shakllantirishning pedagogik aspektlari ochib berilgan.

Yuqoridagi ilmiy ishlar tahlili bugungi axborot almashinish tezkorligi davrida oliy ta’limda amaliy bilimlarni rivojlantirish jarayonlari maxsus tadqiqot yo‘nalishi

sifatida tanlanmaganligini ko'rsatib, bo'lajak muhandislarni tayyorlashda madallashtirish asoslariga zarurat mavjudligini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot ishi muammosiga oid ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida texnik mexanika kursini o'qitish metodikasi orqali talabalarda amaliy bilimlarni shakllashtirish, ularni zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish imkoniyatlari ustida ilmiy izlanishlar olib borish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Termiz davlat universitetida 2019-2022 yillarda bajarilgan PZ-20170929789 raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** texnik mexanika fani asosida talabalarda muhandislik faoliyatiga doir amaliy bilimlarni shakllantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

talabalarga texnik mexanika fanini o'qitishning psixologik-pedagogik aspektlari va asosiy omillarini, amaliy muammolar bilan bog'liq mavjud dasturlar mazmunini tahlil qilish;

texnik mexanika fanini o'qitish asosida talabalarda amaliy muhandislik bilimlarini shakllantirishga doir metodologik yondashuvlar va tamoyillarni tavsiflash;

talabalarda texnik mexanika fani asosida muhandislik faoliyatiga doir amaliy bilimlarni shakllantirish jarayonining funksional modelini takomillashtirish;

innovatsion metodlar asosida talabalarga texnik mexanika fanini o'qitishning mazmunan takomillashtirilgan metodikasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida texnika ixtisosliklari talabalariga texnik mexanika fanini o'qitish orqali muhandislikka doir amaliy bilimlarni rivojlantirish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** texnika ixtisosliklari talabalarida muhandislik faoliyatiga doir amaliy bilimlarni shakllantirishning mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot vazifalarini hal qilishda psixologik, falsafiy, ilmiy-pedagogik, o'quv-uslubiy, texnik, o'quv adabiyotlarini o'rganish va umumlashtirish, normativ hujjatlar, Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, namunaviy va ish dasturlarini tahlil qilish, muhandislik fanini o'qitishning ilg'or tajribalarni tahlil qilish, ikkinchi kurs talabalarini o'rtasida eksperiment o'tkazish, pedagogik eksperimentni loyihalash, sintez qilish, belgilash va modellashtirish asosini aniqlash, talabalar bilan ishlashda anketa va suhbatlar o'tkazish, nazorat va eksperimental mashg'ulotlar natijalarini hisoblash matematik statistik usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talabalarga texnik mexanika fanini o'qitishning motivatsiya hosil qilish, yo'naltirish, tavsiflash, texnik va amaliy bilimlarni hosil qilish kabi aspektlarining texnik jarayonlarni rivojlantiruvchi takomillashgan integrativ yondashuvni transformatsiyalash orqali muhandislik fanlarini o'zlashtirishning o'quv-didaktik vositalari ishlab chiqilgan;

texnik mexanika fanini o'qitishda talabalarning muhandislik faoliyatiga doir amaliy bilimlarni shakllantirish jarayoniga integrativ-qadriyatli, tadqiqiy, mantiqiy-didaktik, resursli, refleksiv-dialogik kabi metodologik yondashuvlar texnologik va natijaviy komponentlari ko'p tarmoqlilik tamoyillariga ustuvorlik berish orqali konseptual-tizimli, tashkiliy-meyoriy, faoliyatli aspektlarda ochib berilgan;

talabalarda texnik mexanika fani asosida muhandislik faoliyatiga tayyorlash funksional modelining mazmunli va texnologik-jarayoni o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish orqali amaliy bilimlarini rivojlantirishning didaktik modeli takomillashtirilgan;

talabalarga texnik mexanika fanini o'qitish metodikasi muhandislarning texnologik kompetentligining rivojlanish darajalarini shakllantirishning motivatsion, kognitiv, innovatsion faoliyat mezonlariga asoslangan holda kompleks baholash asosida takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bo'lajak muhandislarni loyihalash, yaratuvchanlik, konstruktorlik tadqiqotchilik kabi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan dasturiy vositalar asosida "Texnik mexanika" fanidan amaliy ishlarni bajarish bo'yicha elektron modul ishlab chiqilgan;

"Texnik mexanika" fanidan ma'ruza mashg'ulotlari uchun elektron modul ishlab chiqilgan;

"Mashina detallari va loyihalash asoslari" fanidan laboratoriya ishlarni bajarish bo'yicha elektron modul dasturlari ishlab chiqilgan;

bo'lajak muhandislarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan axborot-didaktik ta'minot, jumladan, interfaol o'qitish metodlari, keyslar to'plami va axborot-kommunikativ tavsifdagi mashqlar, ijodiy topshiriqlarni o'z ichiga olgan o'quv uslubiy majmua ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi didaktika, falsafa, psixologiya, ta'lim nazariyasi va metodikasi asosiy holatlariga tayanilgan holda texnika ixtisosliklariga texnik mexanikani o'qitish nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan mavjud muammoni tahlil etilishi; Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutidagi ta'lim berish amaliyotining shaxsiy tajribasi; tadqiqotning majmuaviy metodikasi; asosiy natijalarni bir necha barobar tajriba-sinov orqali tekshirilib ko'rilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif qilingan mexanika fanini o'rganishda amaliy bilimlarning ahamiyatini aniqlashtirishda, talabalarda texnik mexanika fanini mazmunini amaliy

bilimlarni shakllantirish hamda texnik mexanikani o'rgatish metodikasi modelini ishlab chiqish va asoslashda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ularni texnika ixtisosliklari talabalari uchun o'quv qo'llanmaning barcha mavzularini yaxlit tarzda mantiqiy-tarkibiy shaklda taqdim etilishi; talabalar bilimlarini joriy, oraliq va yakuniy nazorat orqali tekshirish uchun topshiriqlar bankini yaratilishi hamda hisob-grafik ishlarini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali bajarilishi; tadqiqotchilik faoliyatida amaliy bilimlarni shakllanganlik darajasini aniqlash metodikasini taqdim etilishi va tadbiiq etilishida namoyon bo'ladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Talabalarda muhandislik faoliyatiga oid amaliy bilimlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

talabalarga texnik mexanika fanini o'qitishning motivatsiya hosil qilish, yo'naltirish, tavsiflash, texnik va amaliy bilimlarni hosil qilish kabi aspektlarining texnik jarayonlarni rivojlantiruvchi takomillashgan integrativ yondashuvni transformatsiyalash orqali muhandislik fanlarini o'zlashtirishning o'quv-didaktik vositalari ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalari asosida Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2019-2022-yillarda bajarilgan PZ-20170929789 raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasidagi "Texnik mexanika" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 314-299 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarning amaliy mexanika mashg'ulotlari davomida muhandislik faoliyatiga doir amaliy bilimlarini rivojlantirish jarayonining metodik ta'minoti takomillashtirilishiga erishilgan;

texnik mexanika fanini o'qitishda talabalarning muhandislik faoliyatiga doir amaliy bilimlarni shakllantirish jarayoniga integrativ-qadriyatli, tadqiqiy, mantiqiy-didaktik, resursli, reflektiv-dialogik kabi metodologik yondashuvlar texnologik va natijaviy komponentlari ko'p tarmoqlilik tamoyillariga ustuvorlik berish orqali konseptual-tizimli, tashkiliy-meyoriy, faoliyatli aspektlarda ochib berilgan tavsiyalari asosida Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2019-2022-yillarda bajarilgan PZ-20170929789 raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasidagi "Amaliy mexanika" nomli o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 314-215 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarning texnik mexanika fanini o'zlashtirishlarida amaliy muammolar bilan bog'liq mavjud dasturlar mazmunini tahlil qilinishiga erishilgan;

talabalarda texnik mexanika fani asosida muhandislik faoliyatiga tayyorlash jarayoni funksional modelining mazmunli va texnologik-jarayoni o'qitishning

dasturiy vositalaridan foydalanish orqali amaliy bilimlarini rivojlantirishning didaktik modelini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalari asosida Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2019-2022-yillarda bajarilgan PZ-20170929789 raqamli “O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi” tomonidan 2023-yil 8-fevralda berilgan 02/01-01-20-son ma’lumotnoma). Natijada, talabalarda amaliy bilimlarni shakllantirish uchun mexanika fanini o‘qitish amaliyotining zaruriyati asoslangan hamda ular bo‘yicha o‘quv-metodik jarayonni takomillashtirish imkonini bergan;

talabalarga texnik mexanika fanini o‘qitish metodikasi muhandislarning texnologik kompetentligining rivojlanish darajalarini shakllantirishning motivatsion, kognitiv, innovatsion faoliyat mezonlariga asoslangan holda kompleks baholashni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalari asosida Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2019-2022-yillarda bajarilgan PZ-20170929789 raqamli “O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi” tomonidan 2023-yil 8-fevralda berilgan 02/01-01-20-son ma’lumotnoma). Natijada, talabalarning texnologik kompetentsiyalarining rivojlanish darajalarini baholash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 23 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda, 6 tasi Respublika jurnallarida chop etilgan. 2 ta o‘quv qo‘llanma chop etilgan va 3 ta elektron modulli dastur ishlab chiqilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati ilmiy asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib o‘tilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritib berilgan, tadqiqotning ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining

amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Texnika ixtisosligi talabalarida texnik mexanikadan amaliy bilimlarni rivojlantirishning nazariy aspektlari”** deb nomlangan bo'lib, unda texnika ixtisosliklari talabalarida umumkasbiy va umumtexnikaviy bilimlarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik aspektlari, amaliy bilimlarni rivojlantirishni tashkil etuvchi asosiy omillar, texnik mexanikani ta'limida talabalarning amaliy bilimlarini rivojlantirishda foydalaniladigan metodologik yondashuv va tamoyillar tavsifi bayon qilingan.

Ma'lumki, amaliy bilimlar mavhum-mantiqiy fikrlashning rivojlantirilib borishi asosida shakllanadi. Tadqiqotlarning tahlili mavhum-mantiqiy fikrlash bilishning mavhumlikdan mantiqiylikka o'tib boruvchi psixologik jarayoni sifatida qaralishini ko'rsatadi. Bilish va shaxs shakllanishi o'zaro bir-birini rag'batlantiruvchi chambarchas bog'liq jarayonlardir. Bilish mohiyatan, ilmiy-ta'limiy bilimlarni muvofiqlashtirish asosida amalga oshiriladi. Agar bunday bo'lmasa, ya'ni ilmiy-ta'limiy bilimlarni muvofiqlashtirish bilishning omili sifatida xizmat qilmasa, ta'lim atrof-borliqning ilmiy tavsif vositasida idrok etilishini ta'minlay olmaydi. Ta'lim berish obyektiv olamning subyekt tomonidan anglanish va o'zlashtirish modellaridan biri sifatida qaraladi.

Talabalarda bilimlarni rivojlantirishning psixologik aspekti: bilimlarni shakllantirish jarayoni talaba shaxsining psixologik xususiyatlari, uning xulq-atvori va faoliyati motivlari, shuningdek, uning yosh xususiyatlari bilan uzviy bog'liq; pedagogik aspekt: pedagogika nuqtai nazaridan, qiziqish insonning voqelik predmeti va hodisalariga nisbatan kognitiv munosabatining yo'nalishini belgilaydi.

Talabalarda amaliy bilimlarni rivojlantirishning psixologik va pedagogik aspektlaridan kelib chiqib, aytish mumkinki bu jarayon ularning bir qator shaxsiy qobiliyatlari hamda xususiyatlariga ma'lum darajada ta'sir o'tkazadi. Xususan: kognitiv qiziqishlari, fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga; o'quv faoliyati samarali olib borish va mavzularni mukammal o'zlashtirish undovchi motivning rivojlanishiga; talabaning intilishlari, istaklari, qiziqishlariga; talabaning kasbiy yo'nalishini o'zgartirishiga sabab bo'luvchi shaxsiy xususiyatlari kabilarga o'z ta'siriga ega.

O'quv jarayoni asnosida shakllangan bilim, orttirilgan ko'nikma va egallangan malakalar qiziqish bilan uyg'unlashib, eng yuqori darajadagi qiziqish hisoblangan kognitiv qiziqishni hosil qiladi. Kognitiv qiziqishni yaratish va ta'minlash - talabalar o'rtasida amaliy bilimlarni shakllantirishning belgilovchi omillaridan biridir.

“Texnik mexanika” fani mazmun-mundarijasiga ko'ra, bir qator murakkab (“Nazariy mexanika”, “Materiallar qarshiligi”, “Mashina va mexanizmlar nazariyasi”, “Mashina detallari” va shu kabi) fanlar bilan aloqador bo'lib, OTMlarning texnika yo'nalishi bo'yicha mutaxassis tayyorlashga qaratilgan ta'limning mukammalligini ta'minlaydi.

Amaliy bilimlarni shakllantirish zamonaviy kasbiy ta'limning asosini tashkil

etuvchi faktorlardan biridir.

Ta'limdagi integrativ jarayonlarga bag'ishlangan tadqiqotlar, adabiyotlar va manbalarni tahlil etib, aytish mumkinki, integratsiya uchta darajada joriy etiladi. Ular quyidagi ko'rinishlarda:

- 1) konseptual-tizimli (muayyan mavzu ichidagi o'quv materialini darajasida);
- 2) tashkiliy-meyoriy (ma'lum bir mavzu yoki modul darajasida);
- 3) mundarijaviy-faoliyatli (o'quv dasturlari darajasida) joriy etilishi mumkin.

Integratsiya imkoniyatlarining ta'limni modernizatsiya qilish konsepsiyasida namoyon bo'lishining mohiyati shundan iboratki, unda amaliy bilimlarni rivojlantirishning konseptual va nazariy asoslarini birlashtirish nazarda tutiladi.

Talabalarda amaliy bilimlarni rivojlantirishning bashoratli konsepsiyalarini joriy etish va ta'lim tizimini rivojlantirishda falsafiy, umumilmiy va ilmiy tavsiflarga ega bo'lgan metodologik yondashuvlarga tayanamiz: *tizimli, integrativ-qadriyatli, tadqiqotli, resursli, refleksiv-dialogik*. Biz metodologik yondashuvlarga (falsafiy, umumilmiy va ilmiy) tayanamiz: konseptuallarni qurish va ta'lim tizimini rivojlantirish (talabalarda amaliy bilimlarni rivojlantirishning prognostik konsepsiyasini ishlab chiqish).

Texnik mexanikadan ta'lim jarayonini tashkil etish - *insonparvarlik, integratsiya, moslashuvchanlik, ijtimoiy yo'naltirilganlik, ko'p funksiyalilik, kasbga yo'naltirilganlik* kabi tamoyillarini o'zida namoyon etadi. Bu tamoyillar o'quv dasturlarini yaratishda, texnik mexanika fanini o'qitishda, o'z davrining ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda davomiyligini asoslash kabilarda o'z ifodasini topadi.

Keltirib o'tilgan metodologik yondashuvlar va tamoyillar texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarga texnik mexanikani o'qitishda amaliy bilimlarini rivojlantirishning metodologik va nazariy asosini belgilab beradi.

Umumiy ma'noda pedagogik shart-sharoitlarni uchta katta guruhga bo'lish mumkin: tashkiliy pedagogik, pedagogik-psixologik, predmetli-didaktik. *Tashkiliy-pedagogik*. Bunda texnik mexanika fan dasturlarini tahlil qilish, fan dasturlari mazmuniga qo'shimchalar kiritish, malaka talablarida fundamental fanlarni o'qitish bo'yicha keltirilgan izohlarni mazmunan to'ldirish; *Pedagogik-psixologik*. Bunda talabalarga texnik mexanika o'qitishda amaliy bilimlarni rivojlantirish bo'yicha o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlash, refleksiv harakatlarni amalga oshirishga tayyorlash va imkoniyatlar berish; *Predmetli-didaktik*. Bunda talabalarni amaliy bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv-uslubiy, pedagogik dasturiy va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, onlay va oflayn fundamental bilim olishga sharoitlar to'plamini ishlab chiqish nazarda tutiladi.

Talabalarga texnik mexanika fanini o'qitishning motivatsiya hosil qilish, yo'naltirish, tavsiflash, texnik va amaliy bilimlarni hosil qilish kabi aspektlarining texnik jarayonlarni rivojlantiruvchi takomillashgan integrativ yondashuvni transformatsiyalash orqali muhandislik fanlarini o'zlashtirishning o'quv-didaktik vositalari ishlab chiqildi. Texnik mexanika fanini o'qitishda talabalarning muhandislik faoliyatiga doir amaliy bilimlarni shakllantirish jarayoniga integrativ-

qadriyatli, tadqiqiy, mantiqiy-didaktik, resursli, refleksiv-dialogik kabi metodologik yondashuvlar texnologik va natijaviy komponentlari ko'p tarmoqlilik tamoyillariga ustuvorlik berish orqali konseptual-tizimli, tashkiliy-meyoriy, faoliyatli aspektlarda ochib berildi.

Pedagogik, psixologik, ilmiy, falsafiy va tadqiqot ishlari tahlili natijalarini tahlil qilindi. Texnika ixtisosliklari talabalari o'rtasida amaliy bilimlarni shakllantirish bosqichma-bosqich, ya'ni talabalarni o'qitish jarayonining boshida –umumtexnik, ijtimoiy va aniq fanlar blokini o'rganish, so'ngra - to'g'ridan-to'g'ri “Texnik mexanika” fanini o'rganayotganda talabalarining amaliy bilimlarini rivojlantirish zaruriyatini ko'rsatdi. Yo'nalish malaka talablari va fan dasturlari tahlil qilindi, fan dasturi mazmunan rivojlantirilib, uslubiy ta'minot (“Texnik mexanika” va “Amaliy mexanika” o'quv qo'llanmalari) takomillashtirildi.

Dissertatsion tadqiqot ishining ikkinchi bobi **“Mexanikaga oid fanlarni o'qitish asosida amaliy bilimlarni shakllantirish metodikasi”** deb nomlanib, unda texnik mexanikaga oid fanlarning ta'lim mazmunini tanlashdagi o'ziga xosligi, talabalarda texnik mexanika bilan bog'liq amaliy bilimlarni shakllantirish va rivojlantirishning modeli, talabalarga texnik mexanikani o'qitishda taqdim etilayotgan metodikaning tavsifiy bayoni keltirib o'tilgan.

Texnik mexanikaga oid fanlarning mazmunini tanlashda o'qitish natijalari muhim ahamiyatga ega va shu nuqtai nazardan, natija o'rganilmagan formula, qonun bilan emas, balki tadqiqot jarayonini amalga oshirish ko'nikmasi bilan ifodalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida ba'zan talabalarga ularning yoshiga mos bo'lmagan juda murakkab bilim elementlariga duch kelishi mumkin, ammo fanlardan kutilgan pedagogik samaradorlik bu murakkab bilimlarni emas, balki ularni egallash metodikasining o'zlashtirishni nazarda tutadi. Texnik mexanikaning amaliy savollari talabalar kasbiy motivatsiyasini oshirish va ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vositasi sifatida qarab chiqiladi. Shu munosabat bilan ilmiy metodni ochib berish vositasi sifatida qo'llaniladigan savollarga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi.

“Texnik mexanika” fanini o'rganish jarayonida (1-jadval) mashina detallari va loyihalash asoslari bo'limiga muhim o'rin berilganligi bejiz emas, aynan shu asosda keyinchalik texnik mexanika (bog'liqlik reaksiyalarini aniqlash) tashqi yuklarning ta'siridan tuzilmalar sohalarida paydo bo'ladigan normal va urinma kuchlanishlar, ichki kuch omillari va shu kabilar o'rganiladi.

“Texnik mexanika” fanini o'qitish bo'yicha fanlar aniq belgilangan amaliy yo'nalishda talabalarining tafakkur doirasini kengaytirish, mashg'ulotlarni tashkil etish shakllarini takomillashtirish orqali ularni shaxs va bo'lajak mutaxassis sifatida rivojlantirishga qaratiladi.

Texnik mexanika fanining mazmuni ilmiy bilimlarning mantig'ini aniq aks ettiradi. O'zlashtirishning asosiy maqsadi - texnika ixtisosliklari talabalarining amaliy bilimlarini shakllantirish uchun asos bo'lgan amaliy masalalar taqdim etishdir. Bu esa, o'z navbatida, mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha oliy ta'lim muassasalari DTS

malaka talablarining bajarilishini ta'minlaydigan fanlarni samarali ravishda o'rganish imkonini beradi.

Talabalarning amaliy tayyorgarligi tizimida pedagogik jarayonda uchta o'zaro ta'sir qiluvchi komponentdan iborat: bo'lajak muhandisning amaliy tayyorgarligida amaliy bilimlaridan foydalanishga yo'naltirilganligini shakllantirish; Texnik mexanikadan metodik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. Ushbu ma'lumotlar bizning modelimizning maqsadli blokini tashkil qiladi, ular asosida biz talabalarning o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun universal zamonaviy didaktik vosita sifatida amaliy bilimlarini rivojlantirish uchun bo'lajak muhandislarni tayyorlash mazmunini tanladik.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz bo'lajak muhandislarga Texnik mexanikani o'qitish asosida amaliy bilimlarini rivojlantirishning didaktik modelini taklif etdik. Mazkur model to'rtta o'zaro bog'langan komponentlardan iborat bo'ldi: maqsad, mazmun, jarayon va diagnostik natijaviy (1-rasm).

Bo'lajak mutaxassisga davlat ta'lim standartining malaka talablari asosida, pedagogik fanda yondashuv va tamoyillarning xilma-xilligiga asoslanib, tadqiqot davomida olib borilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar texnika ixtisosliklarida texnik mexanikani o'qitishda amaliy bilimlarni shakllantirish hamda rivojlantirish jarayonini 1-rasmda ko'rsatilgan modelini ishlab chiqishga imkon berdi.


Mazkur tadqiqotlar doirasida ko'rib chiqilayotgan model faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan: maqsadlar majmuasidan kelib chiqib yaratilgan tuzilmalarning ichki birligi va shaxsning ijtimoiylashuviga yo'naltirilganlik; integratsiyalashgan mazmuni, ta'limning shakllari, usullari va vositalari bilan tavsif etiladigan yaxlit shaklga egaligi; mexanikani o'qitish orqali OTM talabalarida amaliy bilimlarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilganlik kabi muhim xususiyatlarga ega.

Texnik mexanikani fanini o'qitishda oliy ta'lim muassasalari talabalarida amaliy bilimlarni shakllantirish jarayoni modelining tuzilmaviy tarkibi maqsad, jarayonda amal qilinadigan tamoyillar, funksiyalari, mundarijasi, shakl, metod, o'qitish vositalari va natijasi kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Mazkur model tuzilmaviy tarkibidagi muhim elementlardan biri "maqsad" komponenti bo'lib, u: amaliy bilimlari shakllantirish; texnik fikrlashni takomillashtirish; talabalarni bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash kabilardan iboratdir.

*Maqsad komponenti* ijtimoiy buyurtma va maqsadni o'z ichiga oladi. Modelda talabalarning texnik mexanikadan amaliy bilimlarini rivojlantirishni nazarda tutiladi.

*Mazmun komponenti* vazifalar, yondashuvlar, tamoyillar, pedagogik shart-sharoitlar va funksiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu komponent talabalarni texnik mexanikadan ta'lim jarayonida talabalarning amaliy bilimlarini rivojlantirishni nazariy jihatdan asoslaydi.

*Jarayon komponenti* shakllar, metodlar va vositalardan tashkil topgan. Bunda texnik mexanikani o'qitish amaliyot jarayonlarida amalga oshiriladi. Mazkur komponent texnik mexanikadan ta'lim jarayonini to'liq o'zida mujassamlashtiradi.



*Diagnostik-natijaviy* komponent pedagogik tajriba-sinov bosqichlari, baholash mezonlari, tayyorgarlik darajalari va natijani qamrab olgan. Mazkur komponent yuqorida keltirilgan uchta komponentni to'g'ri amalga oshirilganligini tasdiqlaydi.

Modelda, shuningdek, pedagog va talabaning o'z-o'zini boshqarishi bilan bog'liq individual va kommunikativ xususiyatga ega bo'lgan funksiyalari, o'quv jarayoning tashkiliy-boshqaruv elementlariga ham e'tibor qaratilgan. Didaktik model maqsaddan natijaga yo'nalgan uzluksiz tizim sifatida qaralsa bo'lajak mutaxassisni tayyorlashda amalga oshirilgan algoritmik ketma-ketlikni izchil amalga oshirilishini talab qiladi. Modeldan foydalanib bo'lajak muhandislarni amaliy bilimlarini rivojlanganlik darajasiga qarab samarali ekanligi aniqlanadi.

Bizning tadqiqotlarimizda "Texnik mexanika"ni o'qitishda texnika ixtisosliklari talabalarida amaliy bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun foydalanilgan metodlar quyidagilardir: induktiv, deduktiv, monologik, dialogik, evristik, tadqiqotchilik, og'zaki (tushuntirish, ma'ruza, suhbat, munozara va shu kabilar); ko'rgazmali (namoyish qilish, slaydlar, mavzuga oid ko'rgazmalar va h.k); amaliy (muammolarni hal qilish, hisob-grafik ishlari va boshqalar). Ta'kidlash lozimki, zamonaviy ta'limdagi tushuntirish metodi an'anaviy ta'limdagi shu xildagi metoddan farq qiladi va muammoni tavsiflash, qisman tadqiqot va didaktik xulosa kabi elementlardan tashkil topadi. Ma'ruza, suhbat, bahs-munozara usullari haqida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Shuningdek, amaliy metodlar tarkibiga materialni test topshiriqlaridan foydalangan holda bosqichma-bosqich ishlab chiqish, pedagog rahbarligida talabalarning mustaqil ishi kabi qayta ishlash metodlaridan ham foydalaniladi.


Texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida mexanikani o'qitish bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, bu borada ishlab chiqilgan uslublar va o'quv qo'llanmalardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Mazkur uslublar va o'quv qo'llanmalari to'plami qo'llanilish shart-sharoitlari o'quv maqsadlari va ma'lum bir majmua tarkibining xususiyatlaridan kelib chiqib, mashg'ulotlarning tashkiliy shakllariga muvofiq tarzda belgilanadi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda talabalarning topshiriqlar murakkabligidan kelib chiqib individual hamda guruhda va jamoaviy tarzda ishlay olishlari ta'minlanishini nazarda tutilishi lozim. Bunga erishish uchun esa o'qitishning: alohida (nashrlar, ma'ruzalar, tezislari, taqdimotlar va shu kabilar): guruhli (amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari va hokazo); jamoaviy (seminarlar, konferensiyalar, bahs-munozaralar va boshqalar) kabi shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ta'lim jarayonida maqsadli va o'z o'rnida foydalanilgan o'qitish vositalari ham talabalar bilimlarining sifatiga, binobarin, ularning intellektual rivojlanishi va bo'lajak mutaxassis sifatida shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'qitish vositalari materiallar (darsliklar va o'quv qo'llanmalari, jadvallar, plakatlar, modellar, o'quv-texnik vositalari, laboratoriya jihozlari va boshqalar) va ideal o'quv vositalari (diagrammalar, chizmalar, formulalar, grafiklar va shu kabilar)dan iboratdir.

O'qitish metodikasining asosiy maqsadi, mazkur tadqiqot ishida yaratilgan modelga muvofiq, oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'rtasida amaliy bilimlarni shakllantirish hisoblanadi. Oliy ta'lim bitiruvchilarida amaliy bilimlarini

shakllantirish jarayoni talabalarni o‘qitishning yaxlit davrida sodir bo‘ladi va u quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: *birinchi bosqich*: “Matematika”, “Kimyo”, “Fizika” (1-kurs), shuningdek, xorijiy tillar va ijtimoiy fanlarni o‘rganish jarayoni talabalar uchun 1-2 kurslarda amalga oshiriladi. Mazkur bosqichda talabalarni umumiy ta’lim fanlari asosida tayyorgarliklari bo‘yicha o‘qitish amalga oshiriladi va ular tabiiy-ilmiy, matematika va gumanitar fanlar asoslarini o‘rganadilar; *ikkinchi bosqich*: “Mutaxassislikka kirish”, “Texnik mexanika” kabi umumkasbiy va tanlov fanlarni o‘rganish va boshqa shu kabi fanlar o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish seminarlar, amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlarida, shuningdek har xil turdagi mashg‘ulotlar (ta’lim, boshlang‘ich kasbiy ko‘nikmalarni olish uchun, texnologik va h.k) davomida amalga oshiriladi. Tadqiqotchi tomonidan olib borilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalari oliy ta’lim muassasalari talabalarida mexanika bo‘yicha amaliy bilimlarning shakllanish darajasini oshirish vositalaridan biri “Amaliy mexanika” tanlov fanni oliy ta’limning ikkinchi kursidan ta’lim jarayoniga kiritilishi hisoblanadi.

Keyingi bosqichlarda tanlov fanlari orqali amaliy bilimlarni shakllantirish jarayoni «Texnik mexanika» fanida rivojlantiriladi. Texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari talabalarini tanlov fanlarni o‘rganishga muvaffaqiyatli tayyorlash uchun shu tariqa asos yaratiladi. Yuqoridagi mulohazalardan texnik mexanikaning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi kelib chiqadi va bog‘liqlikni quyidagi ko‘rinishda tasvirlash mumkin (2-rasm).



**2-rasm. Texnik mexanikaning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi**

Talabalarning amaliy bilimlarini rivojlantirish bosqichlari quyidagilardan iborat: motivatsiyali (talabalarni kasbiy muammolarga kirishi); faoliyatli (amaliy bilimlarni mustahkamlash, ko‘nikmalarni shakllantirish); refleksiv (fundamental bilimlarga qadriyatli munosabat va baholash bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish) (1-jadval).

Ta’lim shakllari: auditoriyada (ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminarlar va hokazo.) va auditoriyadan tashqari (ekskursiyalar, talabalarni mustaqil ishi), guruhli, individual, jamoaviy.

Ta’lim metodlari: shaxsiy sifatlarni rivojlantirish metodlari (ma’ruza, seminar mashg‘ulot, mustaqil ish), muammoli-rivojlantiruvchi metodlar (bahs-munozara ma’ruzalar, bahs-munozara, muammoli vaziyat), amaliy faoliyatni tashkil qilish metodlari (amaliy topshiriqlar, olimlar bilan uchrashuv, olimpiadalar va konferensiyalarda ishtirok etish).

Ta’lim vositalari: axborot (videofilmlar, elektron tashuvchilar, On-Line tartibda ma’ruzalar), ta’lim beruvchi (elektron o‘quv qo‘llanma, o‘quv uslubiy majmua, tanlov fanlar dasturi, ta’lim saytlari), diagnostik (testlar, topshiriq kartochkalar, mustaqil ish uchun ishchi daftarlar).

**1-jadval**

